

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RABBIMOV JAXONGIR SHODMONKULOVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLARDAN DIZEL YOQILG‘ILARI SETAN
SONINI OSHIRUVCHI PRISADKALARNI OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Texnika fanlar bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich

Mahalliy xomashyolardan dizel yoqilg‘ilari setan sonini oshiruvchi prisadkalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Раббимов Жахонгир Шодмонкулович

Разработка технологии получения присадок из местного сырья для повышения цетанового числа дизельного топлива.....21

Rabbimov Jakhongir

Development of a technology for obtaining additives from local raw materials that increase the cetane number of diesel fuels.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RABBIMOV JAXONGIR SHODMONKULOVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLARDAN DIZEL YOQILG‘ILARI SETAN
SONINI OSHIRUVCHI PRISADKALARNI OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.4.PhD/T5024 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fozilov Sadriddin Fayzullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Do'stov Hamro Bozorovich
kimyo fanlari doktori, professor

To'rayev Tolib Bozorovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84, Faks: (+99865)223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (368 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 6-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 21-iyundagi №10-raqamli reestr bayonnomasi).



N.K. Majidova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, texnika fanlari doktori, professor

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

H.B. Do'stov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yoqilg'ilarga qo'yilgan talablarning keskin ortishi yoqilg'i ishlab chiqaruvchi zavodlar oldiga bir qancha qilinishi kerak bo'lgan vazifalar qo'yadi. Bugungi kunda dizel yoqilg'isi EURO -3,-4,-5 va undanda baland bo'lgan talablariga muvofiq bo'lishi talab etilmoqda. Dizel yoqilg'isining asosiy ko'rsatgichi bu ularning setan soni (SS) hisoblanib yoqilg'ida bu ko'rsatgich qancha yuqori bo'lsa, divigatelda o't olish yaxshilanadi, divigatelning ishga tushirish xususiyatlari, bardoshlilik, foydali ish ko'effitsiyenti (FIK) tejamkorligi ortadi, chiqindi gazlarning tarkibi hamda miqdori kamayadi. Shu sababli yangi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda yangi avlod divigatellari uchun setan soni 51 dan 55 birlikgacha bo'lgan yoqilg'ilar qo'llash bundan tashqari setan sonining yuqori qiymatlariga ega bo'lgan komponentlar bilan kompaundirlab, setan sonini oshiruvchi prisadkallarni qo'llab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda rivojlangan davlatlar bozorida dizel yoqilg'ilari uchun ishlatiladigan prisadkalar orasida setan sonini oshiruvchi prisadkalar tayyorlashga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yangi turdagi mavjud istiqbolli setan sonini oshiruvchi prisadkalar assortimentining asosiy komponenti bo'lib siklogeksilnitrat yoki 2-etilgeksilnitrat kabi birikmalar tayyorlash, arzon va mavjud xomashyolar asosida mahalliy setan sonini oshiruvchi prisadkani ishlab chiqishga oid texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi vaqtda foydalanilayotgan prisadkalarining aksariyat qismi import hisobiga olib kelinadi, bu mahalliy xomashyolar asosida dizel yoqilg'ilari uchun setan sonini oshiruvchi prisadkalar ishlab chiqarishni taqozo qiladi. Bu texnologiyalar yoqilg'ilar uchun prisadkalar EURO -3, -4, -5 standartlari talablariga javob berishi uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "Mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslardan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyalarini yaratish" ga qaratilgan muhim vazifalari belgilangan. Bu borada motor yoqilg'ilarning ekspluatatsion xossalarini yuqori samarali prisadkallarni qo'llab ularni yoqilg'i tarkibiga kiritish dizel yoqilg'ilarning sifatiga qo'yiladigan ko'rsatkichlarning talab qilinadigan qiymatlarini olish uchun muddat va xarajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi, 2022 yil 7 iyuldagi PQ-309-sonli "Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2021 yil 13-fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi farmon va qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda barcha rivojlangan davlatlarda neftdan olinadigan dizel yoqilg‘isini fizik-kimyoviy, ekologik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash, uning setan sonini oshirish, dizel yoqilg‘ilari uchun moylovchi prisadkalarini olish va ularni yoqilg‘i moylanishiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha quyidagi xorijiy olimlar J.Denis, J.S.Manka, K.L.Ziegler, D.R.Nelson, B.Y.Englin, Z.A.Sablina, A.A.Gureyev, Y.B.Chertkov, A.M.Kuliyev, R.A.Terteryan, T.N.Mitusova, A.M.Danilov, S.T.Bashkatova, V.M.Kapustin va boshqalar, respublikamizda esa S.M.Turobjonov, B.N.Hamidov., A.T.Jalilov, Sh.M.Saydaxmedov, E.M.Saydaxmedov, G.R.Narmetova, M.P.Yunusov, S.A.Abduraximov, O.M.Yoriyev, N.Yodgorov, O.S.Maxsumova, B.A.Muxamedgaliyev, S.F.Fozilov kabi olimlar va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan yoqilg‘i mahsulotlarini fizik-kimyoviy xossalarini, yoqilg‘ining tarkibiga turli xil prisadkalar kiritilganda xossalarning o‘zgarishini o‘rganish va yuqori sifatli zamonaviy ekologik EURO 5 talablarga javob beruvchi dizel yoqilg‘ilarini ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, setan sonini oshiruvchi va moylovchi prisadkalarini sintezi, ularning ta‘sir qilish mexanizmi, prisadkalarining tarkibi, texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan.

Ammo, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda mamlakatimizda dizel yoqilg‘ilarining setan sonini oshiruvchi yonuvchanlik xossalarini yaxshilay oladigan prisadkalarini sintezi va olinishi yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu muammoni yechishda yurtimizdagi mavjud ikkilamchi xomashyo resurslardan foydalanib, ularni ishlab chiqish texnologiyalarini joriy etish, samaradorligi yuqori bo‘lgan arzon va ekologik zararsiz setan sonini oshiruvchi prisadkalar sifatida qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Alkilnitratlar va alkilperoksidlarini sintez qilish va ularni dizel yoqilg‘ilariga setan sonini oshiruvchi prisadka sifatida qo‘llash”, hamda №49-22 “Mahalliy xomashyolar asosida xossalari yaxshilangan dizel yoqilg‘isi olish texnologiyasini ishlab chiqish” (2023-2024 yy) mavzusidagi xo‘jalik shartnomalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyolar asosida dizel yoqilg'ilari uchun setan sonini oshiruvchi prisadkalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

maqsadli mahsulotning maksimal ulushni olish imkonini beruvchi texnologik parametrlarning optimal qiymatlarini aniqlagan holda arzon va mavjud xomashyo asosida setan sonini oshiradigan prisadkani ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish;

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining gidrotozalangan dizel yoqilg'ilarining sifat ko'rsatkichlariga ishlab chiqilgan prisadka samaradorligini tekshirish;

tavsiya qilinayotgan va chet el prisadkalarini samaradorligini taqqoslash;

prisadka va ularning komponentlarni saqlagan dizel yoqilg'ilarini ishlab chiqarishda, tashishda, saqlashdagi ekologik tavsifi va zaxarliligi (toksikligi) ni ekotoksiklikka tekshirish;

alifatik spirtlarning dizel yoqilg'isining eskirishiga qarshi xossalari ta'sirini tekshirish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib "Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" MChJ ikkilamchi xomashyosi quyi molekulyar polietilen, Farg'ona va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari dizel yoqilg'isi va unga qo'llaniladigan setan sonini oshiruvchi prisadkalar namunalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mahalliy xomashyo resurslari asosida setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqish va dizel yoqilg'isining moylovchanlik xossalari ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiya tadqiqotini bajarishda amaliyotda keng qo'llaniladigan an'anaviy-klassik standart usullar, IQ-spektroskopik, gaz xromato-mass-spektrometriya kabi zamonaviy tahlil usullari hamda shu bilan birga tadqiqot natijalariga ishlov berishda MS Word va MS Excel dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

butil spirtlarini ishlab chiqarishda kub qoldig'ining komponent tarkibini nitrolashdan keyin qoldiqning past qaynaydigan fraksiyasi (q.b.195°C) setan sonini oshiruvchi prisadka bo'lib xizmat qilishi mumkinligi, yuqori qaynaydigan fraksiyasi (195°C q.o.) qo'shimcha ishlovsiz dizel yoqilg'isi uchun eskirishga qarshi prisadka sifatida ishlatilishi mumkinligi aniqlangan;

setan sonini 8,3 punktga oshiruvchi prisadka olinib, ularni dizel yoqilg'isi sifat ko'rsatkichlariga yonish darajasi va moylovchanlik xossalari ta'siri natijasida ekologik toza mahsulot olinishi ilmiy isbotlangan;

dizel yoqilg'ilarini fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydigan prisadkalar ishlab chiqilgan va ular ishlab chiqarish sinovlarida qo'llanilib, alkilnitrat hamda alkilperoksidlardan tanlangan dizel yoqilg'isining yonish tezligini oshiruvchi moddalar dikumilperoksid, di-uchlamchi-butilperoksid, oktilnitrat, 2-etilsiklogeksilnitrat prisadkalarining konsentratsiyasi 0,05 dan 1 % gacha o'zgartirilganda setan soni 46,8 dan 55,1 gacha oshishi ilmiy isbotlangan;

quyi molekular polietilen mahalliy ikkilamchi xomashyo asosida dizel yoqilg'ilari setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

dizel yoqilg'isining eskirish dog'i diametrini o'zgartirish qonuniyatlarining tarkibida molekular 4 dan 12 gacha uglerod atomlarining miqdori ko'p bo'lgan alifatik spirtlar dizel yoqilg'isiga kiritilganda yedirilish dog'i diametri qiymatlarining spirtidagi uglerod atomlari soniga bog'liqligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

butil spirtlarini ishlab chiqarishda kub qoldig'ining q.b.195°C fraksiyasining nitrolash orqali 0 dan 8°C gacha bo'lgan haroratda 1,0-1,5 soat davomida bir vaqtning o'zida 195°C q.o. butil spirtlarini ishlab chiqarishda kub qoldiq fraksiyasini eskirishga qarshi prisadkalar sifatida ishlatib, setan sonini oshiradigan prisadkani olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi prisadkalar zavod sinovlari o'tkazilib, dizel yoqilg'ilari uchun setan sonini oshiradigan prisadkalar ishlab chiqarish texnologiyasi asoslangan;

butil spirtini ishlab chiqarishda kub qoldig'i fraksiyalarini nitrolash jarayonini tekshirish bo'yicha uslubiyoti hamda laboratoriya qurilmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishlarining zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, setan sonini oshiruvchi prisadkalar qo'shilgan dizel yoqilg'ilarining sifat ko'rsatkichlari davlat standartlari asosida fizik-kimyoviy tahlil qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik modellashtirish uslublari bilan ishlov berilganligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida sintez qilingan setan sonini oshiruvchi prisadkalar respublikamizdagi neftni qayta ishlash zavodlarida ijobiy sinov natijalari olinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati setan sonini oshiruvchi prisadkalar sintez qilinganligi, olinish texnologiyasi ishlab chiqilganligi, hamda dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy, texnologik ko'rsatkichlari davlat standarti talablari darajasida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy ikkilamchi xomashyolar asosida setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish orqali yoqilg'i uchun sarf xarajatlarning kamayishiga, ishlab chiqilgan prisadkalar dizel yoqilg'isiga qo'llanilganda yoqilg'ini to'liq yonishiga imkon bergan va bu ekologik, energetik, iqtisodiy sarflarni tejatlashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi prisadkalar qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

setan sonini oshiruvchi prisadkalar sintez usuli "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning "2024-2025 yillarda amaliyotga joriy qilish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ ning 2024 yil 18 apreldagi 02-03-01/144-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, namuna sifatida olingan prisadka dizel yoqilg'isining boshqa ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri aniqlanmagan va setan sonini 46,8 dan 55,1 gacha oshirish imkonini beradi;

sintez qilingan setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish texnologiyasi “Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJning “2024-2025 yillarda amaliyotga joriy qilish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati”ga kiritilgan (“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ ning 2024 yil 18 apreldagi 02-03-01/144-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan prisadka namunalari 0,5% miqdori dizel yoqilg‘isiga qo‘llanilganda GOST 305-82 standart talablariga mos ekanligi imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro miqyosda va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob va umumiy xulosalar foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalar tavsiflangan, olingan natijalar ishonchliligi asoslab berilgan, natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiya strukturasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Ekologik ko‘rsatkichi yaxshilangan dizel yoqilg‘ilarini ishlab chiqarish holati va istiqbollari (adabiyot sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida dizel yoqilg‘ilarini ishlab chiqarishning zamonaviy usullari, dizel yoqilg‘ilarining sifatiga qo‘yiladigan talablar, modifikatsiyalangan dizel yoqilg‘ilarining xossalari, dizel yoqilg‘ilar uchun eskirishga qarshi prisadkalar dizel yoqilg‘ilari uchun setan sonini oshiradigan prisadkalar tahlili va baholash imkoniyatlari to‘g‘risidagi asosiy ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dizel yoqilg‘isini setan soninini yaxshilovchi prisadkalar sintezi va ularni aniqlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob‘ektlarining xarakteristikalarini, tajribalarni o‘tkazish metodikasi, dastlabki moddalar tavsifi va ularni tozalash, ularning tavsifi va ularning asosiy fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilingan. Dizel yoqilg‘ilarning moylash qobiliyatini aniqlash, IK-spektroskopiya, butil spirti kub qoldig‘i q.b.195°C bo‘lgan fraksiyasining to‘liq komponent tarkibi xromato-masspektrometrdan o‘rganilgan, Tadqiqot usullaridan dizel yoqilg‘ilarning moylash qobiliyatini aniqlash, prisadka qo‘shilgan dizel yoqilg‘isi komponent tarkibini o‘rganish, setan sonini oshiradigan prisadkani sintez qilish metodikasi keltirilib batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Mahalliy ikkilamchi xomashyolardan dizel yoqilg‘ilari uchun samarador setan sonini oshiruvchi prisadkalarini olish va ularning ta’sir mexanizmini tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida butil spirtini ishlab chiqarishda kub qoldig‘i asosida setan sonini oshiradigan prisadkani olish, etil spirti kub qoldig‘i sivush moyi asosida setan sonini oshiruvchi va tutunga qarshi prisadkalarini olish uchun xomashyoni tanlash, setan sonini oshiruvchi prisadkalarini sintez qilish va ularni dizel yoqilg‘isi sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri, etilsiklogeksanni nitrolash asosida dizel yoqilg‘ilari uchun setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish va ularning xossalari o‘rganilgan va ta’sir qilish mexanizmi o‘rganilgan. Kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida olingan natijalar keltirilgan va ular tahlil qilingan.

Dizel yoqilg‘isini setan sonini oshiradigan prisadka sifatida spirtlarni nitrolash mahsulotlari qo‘llanilishi mumkin. Prisadkalarini olish uchun boshlang‘ich xomashyo sifatida neft-kimyoyo ishlab chiqarishning chiqindilari, xususan butil spirtini ishlab chiqarishda kub qoldig‘ini ko‘rib chiqish ahamiyatlidir. Butil spirtini ishlab chiqarishda kub qoldig‘i tarkibini tahlili shuni ko‘rsatdiki, kub qoldiqlari tarkibiga 4 dan 8 tagacha uglerod atomlarini saqlagan molekulyar massasi 74 dan 130 gacha bo‘lgan bir qator spirtlar, shuningdek efirlar kiradi.

Dizel yoqilg‘ilarining setan sonini turli prisadkalar bilan oshirish mumkin. 1-jadvalda setan soni 44 bo‘lgan asosiy yoqilg‘iga 1,5% miqdorda kiritilgan eng ko‘p qo‘llaniladigan prisadkalar samaradorligi kamayishi tartibida sanab o‘tilgan. Oksidlash qobiliyatiga ega bo‘lgan turli nitrobirikmalar, aldegidlar, ketonlar, pereoksidlar va boshqa birikmalar prisadkalar sifatida qo‘llashga yaroqlidir.

1-jadval


Turli prisadkalarini kiritganda setan sonining ortishi

Prisadka nomi	Setan soni qiymati o‘sishi
Izopropilnitrat	17
h-butilnitrat	19
h-amilnitrat	23
h-geksilnitrat	20
Ikkilamchi-geksilnitrat	18
Siklogeksilnitrat	22
Oktilnitrat	19

Dizel yoqilg‘isida alifatik spirtlarning turli miqdorlari (0,1 va 0,5% mass.) bo‘lganda eksperimentlar o‘tkazildi, ularning natijalari 1-rasmda keltirilgan.


1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, spirda uglerod atomlarining soni ortishi bilan (molekulyar massasi) TEDD ning pasayishi kuzatiladi. C₈ va undan yuqori bo‘lgan alifatik spirtlarda eng kata o‘zgarishlar kuzatiladi.

Setan sonini oshiruvchi va tutunga qarshi prisadkalar olish uchun xomashyo sifatida etil spirti ishlab chiqarishda chiqadigan qoldiqlari (sivush moyi), distillash qoldig‘idan ajratilgan boshlang‘ich qaynash harorati 195°C fraksiyasi, shuningdek, sulfat kislota, bariy gidroksid va benzol olindi.




1-rasm. Alifatik spirtlardagi uglerod atomlari sonining TEDD ga ta'siri

Spirtlarni eterifikatsiyalash, metall sulfonatlaridan tutunga qarshi qo'shimcha sifatida ishlatilishi mumkin. Sivush moylari va bariy benzosulfonatdan foydalanib, tutunga qarshi prisadkalmari ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatish katta qiziqish uyg'otadi. 2-rasmda etil spirti ishlab chiqarish qoldiqlari tahlil qilish ko'rsatganidek, sivush moylarining tarkibiga molekulyar og'irligi 74 dan 130 gacha bo'lgan bir qator spirtlar kiradi, ular soni 3 dan 9 gacha bo'lgan uglerod atomlari, shuningdek efirlardan iborat.



2-rasm. Etil spirti kub qoldig'i xromatogrammasi

Spirtning noorganik kislotalar bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida eterifikatsiyalash reaksiyasiga ko'ra efirlarning hosil bo'lishi kuzatiladi. Masalan, xomashyo tarkibidagi 2-metilpropanol-1 spirti sulfat kislota bilan o'zaro ta'sirlashganda, quyidagi reaksiya bo'yicha 2-metilpropil sulfatni hosil qiladi:






2-jadval

Etil spirti kub qoldig'i tarkibidagi guruhlarining komponent tarkibi

№	Guruhlar	Konsentratsiya, mg/l	Maydon, mv*min
1	Aldegidlar	0,3223	0,0073
2	Efirlar	0,0290	0,0004
3	Sivush moyi	0,0180	0,0006
4	Metanol	0,0001	0,0112
5	Furfurol	0,0000	0,0000
6	Izopropanol	0,2547	0,0060

Spirtlar va noorganik kislotalarni eterifikatsiyalanish reaksiyasining mexanizmi ko'pchilik adabiyotlarda keltirilgan.



3-jadval

Gidrotozalangan dizel yoqilg'isining fizik va kimyoviy xossalari


Ko'rsatkich nomi	Belgi ko'rsatkichi
Setan soni	51,0
Zichlik 15°C uchun, kg/m ³	830
20°C uchun, kg/m ³	840,6
Politsiklik aromatik uglevodorodlarning tarkibi, %.	5,5
Oltinugurt tarkibi, mg/kg, III sinf.	27-(0,27)
Yopiq tigelda chaqnash harorati, °C	49
Suv tarkibi, mg/kg	Mavjud emas
Moylanish qobiliyati:	
60 °C uchun kuyinish dog'i diametri, mkm	
40 °C kinematik qovushqoqlik, mm ² /s	1,60
Fraksion tarkib:	
-qaynash boshlanishi, °C	
- 180 °C gacha bo'lgan haroratda distillangan, %.	168
- 10 % fraksiya chiqishi, °C	3
- 50 % ob. fraksiya chiqishi, °C	191
- 90 % ob. fraksiya chiqishi, °C	216
- 95 % ob. fraksiya chiqishi, °C	269
- 358 °C gacha bo'lgan haroratda haydash, % ob.	288
Filtrlashni quyi harorati, °C	4,2
Xiralanish harorati	-24
Qotish harorati	-30

*-tadqiqotni bajarishda yedirilish dog'i diametri qiymati 580 mikronni tashkil qiladi.

Tadqiqotda asosiy yoqilg'i sifatida gidrotozalangan dizel fraksiyasi (qishki va arktik iqlim uchun dizel yoqilg'isini ishlab chiqarishda GOST R 52368-2005 bo'yicha dizel yoqilg'isining tarkibiy qismi) ishlatilgan, uning fizik va kimyoviy xususiyatlari 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan asosiy yoqilg'ining moylanishini tavsiflovchi yedirilish dog'i diametrining qiymati ruxsat etilgan qiymatlardan (460 mkm) oshadi va 565 mkm ni tashkil qildi. Shu munosabat bilan o'rganilayotgan dizel yoqilg'isining moylash qobiliyatini yaxshilash uchun uning

tarkibiga spirtlarni kiritish taklif etiladi. Dizel yoqilg'isi tarkibidagi alifatik spirtning turli xil miqdori (0,1 va 0,5%) bilan tajribalar o'tkazildi, natijalari 3-rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm. Kuyindi dog'i diametrini korrektirovka qilishda alifatik spirtlarning ta'siri

3-rasmdan kelib chiqadiki, spirtidagi uglerod atomlari sonining ko'payishi (molekulyar og'irlik) bilan yedirilish dog'i diametrining kamayishi kuzatiladi. Eng muhim o'zgarish C₆ va undan yuqori alifatik spirtlarda aniqlangan.



4-rasm. Dizel yoqilg'isining setan sonini oshiruvchi prisadkalar konsentratsiyasining YDD ga ta'siri

Dizel yoqilg'isi namunasining setan sonining o'rganilayotgan prisadkalar konsentratsiyasiga bog'liqligi 4-rasmda keltirilgan.

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha o'rganilayotgan prisadkalarining dizel yoqilg'isi tarkibiga kiritilishi YDD ning oshishiga, ya'ni uning moylanish qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi. YDD ning maksimal kamayishi dizel yoqilg'isi tarkibiga NESG prisadkasining kiritilishi bilan bog'liq (0,5% hajmda 17,3% ga). Hitec 4103W prisadkasi moylash qobiliyatiga eng kam salbiy ta'sir ko'rsatadi (0,5% hajmda EDD ning 12,2% ga o'sishi).

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1-nitro-2-etilsiklogeksan (NESG) prisadkasidan foydalanganda setan sonining yuqori qiymatga (55,1) o'sishi va

YDD ning minimal pasayishi (890 mm) kuzatildi.

4-jadval

Turli prisadkalar konsentratsiyasini setan soniga bog‘liqligi


Prisadka konsentrat siyasi, %	Di-uchlamchi-butil peroksid (DUBP)	Dikumil peroksid (DKP)	2-etilgeksil-nitrat (2-EGN)	Oktil-nitrat (ON)
0,05	46,7	46,8	46,7	46,4
0,10	46,8	46,8	46,8	46,7
0,15	47,0	47,0	47,0	46,75
0,20	47,3	47,4	47,2	46,8
0,40	47,5	47,6	47,3	47,5
0,60	47,7	47,8	47,4	48,1
0,80	48,0	48,0	47,6	49
0,90	48,3	48,4	48,0	50,0
1,00	48,3	48,6	48,1	51,2

Samaradorlik bo‘yicha setan sonini ko‘paytiruvchi prisadkalarining to‘rtta asosiy turini o‘rganish natijalari 4-jadvalda ko‘rsatildi.

Shuning uchun tahlil qilingan prisadkalarining konsentratsiyasi 0,05 dan 1,0% gacha o‘zgarishi kerak, chunki umumiy ishlab chiqarish tannarxining 1,0% dan oshmaydigan qo‘shilgan prisadka iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi.


1 - Dikumilperoksid (DKP), 2-diuchlamchi-butilperoksid (DUBP), 3-oktilnitrat (ON) va 4-2-etilgeksilnitrat (2-EGN) ishtirokida setan sonining o‘zgarishi.

Diuchlamchi-butilperoksid (DUBP) setan sonini oshiruvchi xususiyatlarga ega. DUBP ulushi ortishi bilan uglerod monoksid (CO) va uglevodorod chiqindilari sezilarli darajada kamaydi. CO chiqindilarining kamayishi 17,0-19,0%, uglevodorodlar chiqindilarining kamayishi 23,0-25,0% ni tashkil etdi. 5-rasmda turli prisadkalar ishtirokida setan soni o‘zgarishi keltirildi.



5-rasm. Turli prisadkalar ishtirokida setan soni o‘zgarishi

Shuningdek, dikumilperoksid, di-tert-butilperoksid moddalarini (1:1) nisbatda aralashmasi, dikumilperoksid, di-tert-butilperoksid moddalarini (1:1) nisbatda aralashmasiga teng nisbatda 2-etilgeksilnitrat qo‘shilgan holda tekshirildi (6-rasm).



6-rasm. Prisadkalar aralashmasi yordamida setan sonini o'zgartirish

Eng yuqori samaradorlik 1,0% miqdorida oktilnitrat qo'shilganda namoyon bo'ldi, bunda boshqa birikmalardan farqli o'laroq, setan sonini GOST bo'yicha talab qilinadigan qiymatga 51 ga teng bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Sintez qilingan prisadkalarining turli markadagi dizel yoqilg'ilarining setan soniga ta'sirini tadqiq qilish va setan sonini oshiruvchi prisadkani olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida chet el prisadkalarining “Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ dizel yoqilg'isining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, ishlab chiqilgan prisadkaning “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MChJ dizel yoqilg'isining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, ishlab chiqilgan setan sonini oshiradigan va eskirishga qarshi prisadkalarining dizel yoqilg'isining moylash qobiliyatiga ta'siri, quyi molekulyar polietilen mahalliy ikkilamchi xomashyo asosida dizel yoqilg'ilari setan sonini oshiruvchi prisadkalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish va dizel yoqilg'ilari uchun ikkilamchi chiqindilardan olingan setan sonini oshiruvchi prisadkalarini qo'llashdan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqilgan.

Dizel yoqilg'ilarida SSOP prisadka miqdorining oshishi uning setan sonining oshishiga olib keladi, ikkinchi tomondan dizel yoqilg'ilarining moylanish qobiliyatining yomonlashishi kuzatildi.

Oltinugurtning kam miqdori 0,022%, setan sonining past qiymati 44 birl. va surkash qobiliyati 598 mkm bilan tavsiflanadigan dizel yoqilg'isi tarkibiga ma'lum setan sonini oshiruvchi prisadkaning 0,2 % mass. ni qo'shish tuzatilgan eskirish dog'i diametri qiymatining 707 mkm gacha oshishiga olib keladi (o'sish 109 mkm ni tashkil qiladi). Shuni ta'kidlash zarurki, oltinugurtning kichik miqdori 0,0275% mass. kichik setan soni 46,8 birl. va moylash qobiliyati 599 mkm bilan tavsiflanadigan “Buxoro Petroleum” MChJ dizel yoqilg'isiga ishlab chiqilgan prisadkadan 0,2% mass. miqdorida kiritganda, tuzatilgan eskirish dog'i diametrining qiymati 645 mkm gacha oshdi (o'sish 46 mkm ni tashkil qiladi).

Sintez qilingan prisadka ma'lum bo'lgan setan sonini oshiruvchi prisadkaga nisbatan dizel yoqilg'isining eskirishga qarshi xossalari ta'siri ikki marta pasaytirishga imkon beradi. Shunday qilib, SSOP prisadkaning dozalanishini setan sonining kerakli o'sishi va tuzatilgan eskirish dog'i diametrini ruxsat etilgan pasayishini hisobga olgan holda amalga oshirishi kerak.

Sintez qilingan setan sonini oshiruvchi prisadka FNQIZ, “Buxoro Petroleum”

MChJ va “Petromaruz Uzbekistan” MChJ ishlab chiqarishlarining dizel yoqilg‘ilarda ba’zi fizik-kimyoviy xossalarini tekshirish shuni ko‘rsatdiki, dizel yoqilg‘isiga ishlab chiqilgan prisadkani kiritish ularning sifatiga ta’sir ko‘rsatmaydi va texnik reglament va EURO pa Standarti EN 590 talablariga javob beradi, faqatgina dizel yoqilg‘isining moylash qobiliyati bundan mustasno, bu to‘g‘risida tuzatilgan eskirish dog‘i diametrining 13-18% ga oshishi dalolat beradi.


Sintez qilingan prisadkani qo‘llash gidrotozalangan dizel yoqilg‘isining xossalarini modifikatsiyalashga imkon beradi, masalan:

- dizel yoqilg‘ilarda ishlab chiqilgan SSOP prisadka 0,5% mass. gacha konsentratsiyada bo‘lganda dizel yoqilg‘ilari sifatining №1-4 o‘zgarishli GOST 305-82 meyorlari va EURO pa standartlaridan yuqori bo‘lgan o‘zgarishlariga olib kelmaydi, TEDD dan tashqari;

- ishlab chiqilgan SSOP prisadka yoqilg‘ining TEDD ning oshishiga olib keladi, ya’ni yoqilg‘i apparaturasining ishlash resursiga ta’sir etadigan moylash qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi;

- FNQIZ MChJ dizel yoqilg‘isida SSOP prisadkaning tavsiya etiladigan miqdori 0,1% mass. ni tashkil qiladi;

- “Buxoro Petroleum” MChJ va “Petromaruz Uzbekistan” MChJ ning dizel yoqilg‘ilarida SSOP prisadkaning tavsiya etiladigan miqdori dizel yoqilg‘isining talab qilinadigan sifatiga bog‘liq bo‘ladi.



7-rasm. Eskirishga qarshi prisadkaning xromato-mass spektri

Laboratoriya tadqiqotlari natijasida setan sonining ortishi prisadkalarining samaradorligiga bog‘liq. Olingan natijalar asosida prisadkalarining setan soniga ta’siri samaradorlik qatorini tuzish mumkin. Shunga qaramasdan, prisadkani tanlashda har bitta dizel yoqilg‘isining fizik-kimyoviy va sifatining eksplutatsion xossalariga ta’sirini, shuningdek prisadkalarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur bo‘ladi.


Dizel yoqilg‘isi sifatini oshirish yo‘llaridan biri, ularning tarkibiga setan sonini oshiruvchi va yedirilishga qarshi, shuningdek kompozitsion prisadkalarni kiritish bo‘lib, bu bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘rsatkichlarni yaxshilash va EURO-4 va 5 (4 va 5-sinflar) standartlariga muvofiq dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarishni ta’minlash imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi prisadkaning dizel yoqilg‘isining moylash qobiliyatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, prisadkalarni o‘z ichiga olgan dizel yoqilg‘isining yedirilish dog‘i diametrining oshishi

aniqlandi. Bu ta'sir setan sonini oshiruvchi prisadkaning o't olish kechikish davrini kamaytiradigan yuqori oksidlovchilik xossalriga ega ekanligi bilan izohlanadi. Oksidlanish reaksiya mahsulotlari ishqalanish sohasiga tushganda ishqalanish juftining yuqori eskirishini keltirib chiqaradi. Shu sababli, dizel yoqilg'isining eskirishga qarshi prisadkani kiritish yo'li bilan eskirish dog'i diametrini pasaytirishga imkon beradigan arzon xomashyoni tanlashga asoslangan tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqotlar natijasida qulay xomashyo-butil spirtlarni ishlab chiqarishning kub qoldig'idan ajratib olingan q.o.195°C bo'lgan fraksiya tanlandi. Bu xomashyoni eskirishga qarshi prisadka sifatida ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi prisadkani saqlagan dizel yoqilg'ilari uchun qo'llash mumkin. Bu eskirishga qarshi prisadkalarni tekshirish natijalari quyida keltirilgan.

Gazli xromotomass-spektrometr GCMS-QP2010 Ultra yordamida eskirishga qarshi prisadkaning komponent tarkibi aniqlandi. Natijalar 7-rasmda keltirildi. Eskirishga qarshi prisadka (EQP) dagi asosiy komponentlarining miqdori 5-jadvalda keltirilgan.



8- rasm. Prisadkasiz va prisadkali dizel yoqilg'ilarini IQ - spektroskopiya usulida olingan spektrlari: a - prisadkasiz dizel yoqilg'isi; b - prisadkali dizel yoqilg'isi

8-rasmda prisadkasiz va prisadkali dizel yoqilg'ilarini IQ-spektroskopiya usulida olingan spektrlari tahlili, tarkibida setan sonini oshiruvchi prisadkali dizel yoqilg'isi tarkibida prisadkadagi funksional guruhlarning hosil bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

5-jadval

Asosiy komponentlar miqdori


№ t.r.	Uglevodorodlar sinflari nomlari	Miqdori, % mass.
1	Spirtlar	24,17
2	Murakkab efirlar	69,63
3	boshqalar	6,20
Jami:		100,00

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, eskirishga qarshi prisadkaning asosiy komponentlari murakkab efirlar hisoblanadi, ular bu prisadkaning 69,63% ni tashkil qiladi.

Jumladan, C-NO₂ valent tebranish signali 1506.76 sm⁻¹ sohasida, kislorodli birikma birlamchi spirt (-CH₂-OH) guruhining valent tebranish signallari 964.84 sm⁻¹ sohada, oddiy efir (C-O-C) guruhining valent tebranishi 723.99 sm⁻¹ sohalarda namoyon boʻlganini kuzatish mumkin.

Sintez qilingan setan sonini oshiruvchi prisadkaning eskirishga qarshi prisadka va dizel yoqilgʻisi bilan qabul qiluvchiligi koʻrib chiqildi. Dizel yoqilgʻisi sifatida FNQIZ olingan gidrotozalangan dizel yoqilgʻisi oltingugurtning past miqdori 7 ppm bilan tavsiflanadi, qachonki, №1-4 oʻzgarishli GOST 523-68 boʻyicha meyor 10 ppm gachani tashkil qiladi.


Setan sonini oshiruvchi prisadkadan 0,1% mass. miqdorini saqlagan dizel yoqilgʻisida eskirishga qarshi prisadkaning optimal miqdori boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazildi. 9-rasmda ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi va eskirishga qarshi prisadkaning gidrotozalangan dizel yoqilgʻisining moylash qobiliyatiga taʼsiri ifodalangan.



9-rasm. TEDD ning 0,1% mass. SSOP ni saqlagan dizel yoqilgʻisidagi EQP prisadka miqdoriga bogʻliqligi

9-rasmdan koʻrinib turibdiki, oʻzining tarkibida -1,0% mass. sintez qilingan setan sonini oshiruvchi prisadkani saqlagan dizel yoqilgʻisi va eskirishga qarshi prisadkaning turli miqdori tuzatilgan eskirish dogʻi diametrining pasayishiga olib keladi, shu bilan birga, eskirishga qarshi prisadkaning miqdori qancha yuqori boʻlsa, shuncha yoqilgʻi kompozitsiyasining moylash qobiliyati yaxshi boʻladi. Masalan, 0,1% mass. miqdorida setan sonini oshiruvchi prisadkani va 0,95% mass. miqdordagi eskirishga qarshi prisadkani saqlagan yoqilgʻining tuzatilgan EDD dastlabki namunaga nisbatan (Dyo+0,1% mass. setan sonini oshiruvchi prisadka) 620 dan 456 mkm gacha pasayadi. Yoqilgʻining moylash qobiliyati boʻyicha EURO pa standarti EN 590 talablariga javob berishi uchun ishlab chiqilgan setan sonini oshiruvchi prisadkani oʻz ichiga olgan dizel yoqilgʻisidagi eskirishga qarshi prisadkaning konsentratsiyasi 0,95% mass. ni tashkil qiladi.

Xomashyoni tayyorlash bloki nasos 2 yordamida butil spritini ishlab chiqarishdagi kub qoldigʻi sigʻimi 1 dan yetkazib chiqarishning kub qoldigʻini ajratishdan iborat (10-rasm).



10-rasm. Setan sonini oshiruvchi prisadkani ishlab chiqarish qurilmasining prinsipial texnologik sxemasi:

1, 9, 13 - sig'implar; 2, 3, 5, 10, 16, 20, 21, 23- nasoslar; 4-atmosferali rektifikatsion kolonna; 6- havoli sovutgich; 7, 1c7, 22 –separator; 8, 12, 14- sovutgichlar; 11- qizdirgich; 15, 18, 19- aralashtirgichli reaktorlar.

Atmosfera bosimi ostida ishlaydigan rektifikatsion kolonna 4 bu blokning asosiy apparati bo'lib hisoblanadi. Kolonna 4 ning yuqorisidan setan sonini oshiradigan prisadkani sintez qilish uchun ishlatiladigan xomashyoning q.b.195°C bo'lgan fraksiyasi chiqariladi. Bug'-gaz aralashmasi havoli sovutgich 6 da sovutilib, separator 7 ga kelib tushadi. Deflegmatsion sig'im 7 da yig'ilgan kondensatning bir qismi nasos 5 orqali kolonna 4 ga sug'orish uchun qayta jo'natiladi. Uning qolgan asosiy qismi suvli sovutgich 8 da sovutilgach q.b.195°C bo'lgan fraksiya saqlanadigan sig'im 9 ga yuboriladi. Sig'im 9 dan nasos 10 yordamida aralashtirgichli reaktor 17 ga yuboriladi. Separator 7 dan gazlarni ajratish uchun ularning ma'shalaga olib tashlanishi ko'zda tutilgan. Kolonna 4 da issiqlik rejimini saqlab turish uchun kolonnaning pastida joylashgan bug'li qizdirgich 11 da qizdirilgan kub mahsulotining (195°C q.o. fraksiya) bir qismi qaytib keladi. 195°C q.o. bo'lgan qizdirilgan fraksiyaning asosiy qismi suvli sovutgich 12 da sovutiladi va dizel yoqilg'isi uchun eskirishga qarshi prisadka (EP) sifatida saqlanish uchun tovar parkiga yuboriladi.

13-sig'imdan 35% konsentratsiyali nitrat kislotasi sovutkichlar 14 da 30°C haroratgacha sovutilgach, nitrolash aralashmasini olish uchun mo'ljallangan blokka beriladi. Nitrolash aralashmasini olish blogi o'z ichiga dozalash, aralashtirish va tayyorlangan aralashmani saqlash jihozlaridan tarkib topgan. Kislotalarning jadal aralashirilishi va kislotalarni aralashtirishda hosil bo'ladigan issiqlikni bartaraf etish ichki yuzalari kislotali korroziyalanishdan himoyalangan aralashtirgichda ta'minlanadi.

Aralashma harorati 35-40°C dan yuqori bo'lmasligi kerak. Harorat oshirilgan holda azot oksidlarining hosil bo'lishi bilan boradigan HNO₃ ning qisman

parchalanishi kuzatiladi. Hosil qilingan nitrolash aralashmasi setan sonini oshiradigan prisadkani sintez qilish blokiga yuboriladi. Yurtimizda yiliga o‘rtacha 1,5 mln. tonna dizel yoqilg‘isidan 250 ming tonnaga yaqini YEVRO-5,6 talablari asosida ishlab chiqariladi. YEVRO-5,6 dizel yoqilg‘isining 1 tonnasi 11 000 000 so‘mga baholanadi.

Mahalliy chiqindilar asosida olingan ushbu setan sonini oshiruvchi prisadkani 0,5% qo‘llash tovar dizel yoqilg‘isi chiqishini 0,5% ga ko‘paytirishi aniqlandi. Uni qo‘llashdan keladigan foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \frac{250\,000 \cdot 0,5}{100} \times 11\,000\,000 = 13\,750\,000\,000 \text{ so‘m}$$

Taklif etilgan setan sonini oshiruvchi prisadkani qo‘llashdan kutiladigan umumiy iqtisodiy samara:

$$13\,750\,000\,000 + 628\,090\,353 = 14\,378\,090\,353 \text{ so‘m}$$

XULOSA

1. Butil spirtini ishlab chiqarishdagi kub qoldig‘ini nitrolaganda hosil bo‘lgan alkilnitratlar, nitrospirtlar hamda nitrat kislota efirlari, dizel yoqilg‘isiga prisadka sifatida kiritganda uning setan sonini oshirishi aniqlandi.

2. Butil spirtlarini ishlab chiqarishda kub qoldig‘ining komponent tarkibini tahlil qilish natijasida nitrolashdan keyin qoldiqning past qaynaydigan fraksiyasi (q.b.195°C) setan sonini oshiruvchi prisadka bo‘lib xizmat qilish mumkinligi, yuqori qaynaydigan fraksiyasi (195°C q.o.) qo‘shimcha ishlovsiz dizel yoqilg‘isi uchun eskirishga qarshi prisadka sifatida ishlatilishi mumkinligi aniqlandi.

3. QMPEdan sentrifugalash, quritish va suyuq fraksiyani haydash jarayonlari orqali erituvchini ajratish tajriba qurilmasi ishlab chiqildi.

4. Etilsiklogeksanni nitrolash asosida dizel yoqilg‘ilari uchun setan sonini oshiruvchi prisadkalar olish va ularning xossalarni o‘rganildi. “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” chiqindisining tarkibidagi siklogeksan va etilsiklogeksanni nitrolab setan sonini oshiruvchi prisadkalar sintez qilindi.

5. Setan sonini oshiruvchi prisadkalarini sintez qilish va ularni dizel yoqilg‘isi sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” chiqindisi tarkibidan ajratib olingan etilsiklogeksanni nitrolab olingan 1-nitro-2-etilsiklogeksan dizel yoqilg‘isini fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalarni yaxshiladi, shuningdek, SS ni 46,8 dan 55,1 gacha oshirdi.

6. Quyi molekullari polietilen mahalliy ikkilamchi xomashyo asosida dizel yoqilg‘ilari setan sonini oshiruvchi prisadkalarni olish texnologiyasini ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РАББИМОВ ЖАХОНГИР ШОДМОНКУЛОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ПРИСАДОК ИЗ
МЕСТНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЦЕТАНОВОГО ЧИСЛА
ДИЗЕЛЬНОГО ТОПЛИВА**

02.00.08 - Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

Бухара-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/T5024.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.bstu.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Фозилов Садриддин Файзуллаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Дустов Хамро Бозорович
доктор химических наук, профессор

Тураев Толиб Бозорович
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

**Институт общей и неорганической химии
Академии наук Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском государственном техническом университете 20 августа 2025 года в 11⁰⁰ часов. (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (зарегистрирована под номером 368). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 6 августа 2025 года.

(реестр протокола №10 от 21 июня 2025 года).



Н.К. Мажидова
Заместитель председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

Х.Б. Дустов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор химических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора философии) (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире резкий рост спроса на топливо создает ряд проблем для предприятий по производству топлива, которые необходимо решать. Сегодня к дизельному топливу предъявляются требования ЕВРО -3, -4, -5 и выше. Основным показателем дизельного топлива является его цетановое число (ЦЧ). Чем выше этот показатель, тем лучше воспламеняемость двигателя, выше его пусковые характеристики, долговечность и топливная экономичность (ТЭК), а также ниже состав и количество отработавших газов. Поэтому при проведении научных исследований в новом направлении актуальным является использование топлив с цетановым числом 51-55 единиц для двигателей нового поколения, а также компаундирование их компонентами с высокими цетановыми числами и использование присадок, повышающих цетановое число.

В мире среди присадок, используемых к дизельным топливам на рынке развитых стран, ведутся исследования по разработке присадок, повышающих цетановое число. В этой связи особое внимание уделяется созданию технологий получения соединений типа циклогексилнитрата или 2-этилгексилнитрата, являющихся основными компонентами ассортимента новых видов перспективных цетаноповышающих присадок, а также разработке отечественных цетаноповышающих присадок на основе дешевого и доступного сырья.

В нашей республике большинство присадок, используемых в настоящее время, импортного производства, что обуславливает необходимость производства присадок, повышающих цетановое число дизельных топлив, на основе местного сырья. Данная технология предназначена для обеспечения соответствия топливных присадок требованиям стандартов EURO -3, -4, -5. В стратегии развития по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на «Создание технологий получения импортозамещающей продукции из местного сырья и вторичных ресурсов». В связи с этим важное значение имеет поддержание сроков и затрат на получение требуемых значений показателей качества дизельного топлива путём улучшения эксплуатационных свойств моторных топлив с использованием высокоэффективных присадок и их введения в состав топлива.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит осуществлению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы¹», Постановления Президента Республики Узбекистан от 7 июля 2022 года № ПП-309 «О мерах по созданию образовательно-производственного кластера в нефтегазовом секторе»,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-4265 Президента Республики Узбекистан от 3 апреля, 2019 «О мерах по дальнейшему реформированию химической отрасли и повышению её инвестиционной привлекательности», а также других нормативно-правовых документов, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики IV «Химическая технология и нанотехнология».

